



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI
TERMIZ SHAHAR HOKIMINING
QARORI**

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 5-uy. 190112, tel.: 0 (376) 224-16-40, fax: 0(376) 224-13-12, termiz.sh@exat.uz

2022 - yil 7 - yanvar

12-8-121-Q/22

Termiz shahar hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi 694-son hamda shu haqida viloyat hokimining 2021-yil 15-dekabrda 223-8-0-Q/21-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-iyulda “Koronavirus pandemiyasini yumshatish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va salomatligini saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6035-son Farmoniga muvofiq

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi 694-son hamda shu haqida viloyat hokimining 2021-yil 15-dekabrda 223-8-0-Q/21-sonli qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 28- sentabrdagi “Respublika aholisini qishloq xo‘jaligi hayvonlarida uchraydigan yuqumli kasalliklardan muhofaza qilish hamda go‘sht va sut mahsulotlarini yetkazib berish va sotish chog‘ida veterinariya-sanitariya talablariga rioya etish to‘g‘risida”gi 379-sonli qarori to‘g‘risida” 1995-yil 12-oktabrdagi 290-son qarorining 3-bandi birinchi xatboshisidagi “Viloyat Sog‘liqni saqlash” so‘zlari “Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati viloyat

boshqarmasi” so‘zlari bilan almashtirilganligi e’tirof etilsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari K.Ashurov zimmasiga yuklansin.

Hokim



Xudayberdiyev I. B.